

JINOYAT HUQUQIDA NORMALAR RAQOBATI TUSHUNCHASI

Ismoilov Shoxabbos G'ayratjon o'g'li

Buxoro tuman prokurorining o'rinbosari

E-mail: shoxa.ismailov@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21254390>

Jinoyat-huquqiy normalar raqobati (lotincha conflictus normarum) — bir xil ijtimoiy xavfli qilmishga nisbatan bir nechta jinoyat-huquqiy normalarning tatbiq etilishi mumkin bo'lgan holatidir[1].

Jinoyat-huquqiy normalar raqobati deganda shaxs tomonidan sodir etilgan qilmish bir vaqtning o'zida Jinoyat kodeksi Maxsus qismidagi ikki yoki undan ortiq mustaqil tarkiblarni tashkil etuvchi turli moddalarda yoki bitta moddaning turli qismlarida nazarda tutilgan belgilariga ega bo'lish holati tushuniladi.

Huquqni qo'llash jarayoni murakkab hisoblanib, huquqni qo'llovchi shaxslar tomonidan ko'pincha tegishli jinoyat-huquqiy normani tanlashda xatoga yo'l qo'yilishi, muayyan huquqiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Shunday muammolardan biri jinoyat-huquqiy normalar raqobatidir. Amaliyotchilar tomonidan kam e'tiborga olinadigan ushbu masala ko'proq nazariyachi olimlar tomonidan o'rganiladi.

Xorijiy davlatlar jinoyat huquqi nazariyasida mazkur masala keng o'rganilgan bo'lib, u jinoyatni to'g'ri kvalifikatsiya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Germaniya jinoyat huquqi doktrinasida normalar raqobati "**Normenkonkurrenz**" tushunchasi bilan ifodalanadi va u ikki asosiy turga bo'linadi:

Haqiqiy (real) raqobat (echte Konkurrenz) — bir harakat bilan bir nechta jinoyat tarkibi sodir etilganda;

Soxta (ko'rinma) raqobat (unechte Konkurrenz) — bir qilmish bir nechta norma belgilariga mos tushadi, ammo ulardan faqat bittasi qo'llaniladi.

Germaniya tajribasida ustuvorlik quyidagi:

Maxsus norma umumiy normani siqib chiqaradi (lex specialis derogat legi generali);

Og'irroq javobgarlik nazarda tutuvchi norma qo'llaniladi;

Yutuvchi norma prinsipi (Konsumtion) tamoyillarga asoslanadi[2].

Bu yondashuv jinoyat-huquqiy aniqlik va adolatni ta'minlashga xizmat qiladi.

Rossiya jinoyat huquqida normalar raqobati masalasi Jinoyat kodeksi va Oliy sud Plenumi qarorlarida batafsil yoritilgan. Rossiya nazariyasida raqobatning quyidagi turlari ajratiladi:

Umumiy va maxsus normalar raqobati;

Butun va qisman mos keluvchi normalar raqobati;

Alternativ normalar raqobati.

Rossiya amaliyotida asosiy qoida — jinoyatni sun'iy ravishda ko'p moddalar bilan kvalifikatsiya qilishga yo'l qo'yimaslikdir. Agar maxsus norma mavjud bo'lsa, umumiy norma qo'llanilmaydi.

Fransiya jinoyat huquqida normalar raqobati "**concoeurs d'infractions**" tushunchasi bilan bog'liq holda ko'rib chiqiladi. Bu yerda ikki asosiy holat farqlanadi:

Ideyal raqobat — bir harakat bir nechta jinoyat tarkibini yuzaga keltiradi;

Real raqobat — bir shaxs bir nechta mustaqil jinoyat sodir etadi.

Fransiya huquqida sudlar **jinoyatning haqiqiy ijtimoiy xavfiligini** inobatga olib, odatda eng og'ir norma bo'yicha javobgarlik belgilaydi.

Anglo-sakson huquq tizimi (AQSh, Buyuk Britaniya) da normalar raqobati an'anaviy kontinental yondashuvdan farq qiladi. Bu tizimda:

“Double jeopardy” (bir qilmish uchun ikki marta jazolamaslik) prinsipi ustuvor;

Case law (sud precedenti) asosiy rol o'ynaydi;

Agar bir qilmish bir nechta jinoyat tarkibiga mos tushsa, sud **eng asosiy jinoyat tarkibini** tanlaydi.

AQSh amaliyotida **“lesser included offense”** doktrinasini qo'llanilib, yengil jinoyat og'ir jinoyat tarkibiga singdirib yuboriladi.

Xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, jinoyat-huquqiy normalar raqobatini hal etishda quyidagi umumiy tamoyillar ustuvor hisoblanadi:

Maxsus norma ustuvorligi;

Og'irroq ijtimoiy xavfli qilmishni to'liq qamrab oluvchi norma tanlanishi;

Jinoyatni asossiz ko'p modda bilan kvalifikatsiya qilmaslik;

Shaxs huquqlarini himoya qilish va adolat prinsipiga rioya etish.

Jinoyat-huquqiy normalar deganda bitta jinoyat qilmish bir vaqtning o'zida bir nechta moddalar bilan qamrab olinishi, biroq ulardan faqat bittasini tanlash zarur bo'lgan holat tushuniladi.

Jinoyat-huquqiy normalar raqobati haqida gapirganda, asosiy jihati bizning jinoyat to'g'risidagi qonunchiligimizda bunday tushuncha rasman nazarda tutilmagan.

Misol sifatida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 164-moddasini olsak, bosqinchilik, ya'ni o'zganing mol-mulkini talon-toroj qilish maqsadida hujum qilib, hayot yoki sog'liq uchun xavfli bo'lgan zo'rlik ishlatib yoxud shunday zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitib sodir etishni nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 164-moddasi 3-qism “g” bandida og'ir tan jarohati yetkazgan holda sodir etilgan bosqinchilik jinoyati uchun javbogarlik nazarda tutilgan. Jinoyat kodeksida aynan og'ir tan jarohati yetkazish uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi 104-modda ham mavjud.

Ammo amaliyotda bosqinchilik vaqtida badanga og'ir shikast yetkazish JK 164-moddasi 3-qismining “g” bandi bilan qamrab olinadi va JK 104-moddasi bo'yicha qo'shimcha kvalifikatsiya qilishni talab etmaydi. Bu aslida normalar raqobat hisoblanmaydi.

Jinoyat huquqi nazariyasida bir jinoyat-huquqiy normaning o'zgartirishlar kiritilgandan keyingi holati bilan bog'liq raqobati ham mavjud bo'lib, adabiyotlarda temporal raqobat deyiladi. Bu qonunning orqaga qaytish kuchi tamoyili bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 97-moddasi 1-qismi, Sovet Ittifoqi davrida ham O'zbekiston SSR Jinoyat kodeksida ham qasddan odam o'ldirish uchun jinoyat javobgarlik mavjud bo'lgan.

Masalan, shaxs 1995-yil mart oyida qasddan odam o'ldirish jinoyati sodir etgan hamda javobgarlikdan qutilish maqsadida yashiringan. O'sha paytda amalda bo'lgan O'zbekiston SSR Jinoyat kodeksi 81-moddasiga ko'ra, 3 yildan 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan. Jinoyat Sodir qilgan shaxs 1995-yil aprel oyida (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi kuchga kirgandan keyin) qo'lga olindi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat

kodeksining 97-moddasi 1-qismida 10 yildan 15 yilgacha ozodlikdan mahrum qilishni nazarda tutadi. Demak, mazmun jihatidan bir xil, ammo sanksiyalari turlicha bo'lgan ikki qonun mavjud.

Jinoiy-huquqiy normalar raqobati – bu bitta qilmishni ikki yoki undan ortiq moddalar tartibga solgan holat ekanligini inobatga olsak, mazkur holatda qaysini tanlash masalasi tug'iladi. Mazkur vaziyatda jinoyat qonunining orqaga qaytish kuchi qo'llanadi, ya'ni ayblanuvchi uchun yengilroq oqibatlarga ega bo'lgan norma tatbiq etiladi.

1995-yil 1 apreldan kuchga kirgan Jinoyat kodeksi sanksisi og'irroq bo'lgani uchun orqaga qaytish kuchiga ega emas. Demak, ushbu normalar raqobatida O'zbekiston SSR Jinoyat kodeksi 81-moddasi foydasiga hal qilinadi. Bu aynan temporal raqobatga oid hisoblanadi.

Normalar raqobatining yana bir turi bu umumiy norma bilan maxsus norma o'rtasidagi raqobat hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi JKning 43 va 81-moddalariga nazar tashlasak, JKning 43-moddasi jazolarning umumiy ro'yxatini, 81-moddasi esa voyaga yetmaganlar uchun belgilangan jazolarni o'z ichiga oladi. Ular o'zaro umumiy va maxsus norma sifatida munosabatda bo'lib, tanlov doimo maxsus norma foydasiga hal qilinadi. Bu yerda jazoning og'irligi ahamiyatga ega emas, balki ustuvorlik har doim maxsus normaga beriladi.

Jinoyat-huquqiy normalar raqobatining vujudga kelishini tarixiy hodisa bo'lib, qonunchilik rivojlanish jarayonida umumiydan xususiyga tomon harakat qiladi, jinoyat qonunchiligi ham bundan mustasno emas.

Normalar raqobati quyidagi: jinoyat tarkiblarining bir-biriga o'xshashligi, jinoyat huquqida umumiy va maxsus normalarning mavjudligi, qilmishning murakkab yoki ko'p obyektli bo'lishi hamda qonun normalarining bir-birini qisman qamrab olishi holatlarda yuzaga keladi.

Jinoyat-huquqiy normalar raqobatini hal etish qoidalariga:

Maxsus norma ustunligi;

To'liq qamrab olgan norma ustunligi;

Aniqroq norma ustunligi;

Og'irroq jinoyat tarkibi ustunligini keltirish mumkin.

Davlat va huquq nazariyasida "normativ-huquqiy hujjatlarni kodifikatsiyalash" tushunchasi bizga ma'lum. Bu jarayonda normalar qayta ko'rib chiqiladi, yangi normalar kiritiladi va ziddiyatlar bartaraf etiladi. Shunga qaramay, normalar o'rtasida raqobat baribir yuzaga keladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining Maxsus qismi tarixiy tajriba asosida shakllangan bo'lib, kelajakda ham yangi o'zgarishlar muqarrar ekanligini anglatadi. Hatto umumiy rivojlanishga qaramay, umumiy va maxsus normalar bilan ularni qandaydir tarzda to'ldirishga to'g'ri keladi. Ayniqsa, raqamlashtirish va internet tarmog'ining keng qo'llanilishi jarayonida bu yaqqol ko'rinadi. Ilgari bunday holatlar bo'lmagani sababli, transmilliy jinoyatlar, kiberjinoyatlar uchun jinoyat qonunchiligida jinoiy javobgarlik belgilash ehtiyoji sezilmoqda.

Jinoyat qonunchiligi faqat umumiy yoki maxsus normalarni kiritish yo'li bilan rivojlanmaydi, balki murakkab va o'zgaruvchan tizim hisoblanadi. Shu bois, jinoyat huquqida raqobatning mavjudligi salbiy yoki xato hodisa sifatida qaralmasligi kerak.

Huquqiy tartibga solish, odatda, avvalo umumiy normalardan boshlanib, keyinchalik maxsus qismda aniq va ravshan qoidalar bilan boyitiladi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 97-moddasi qasddan odam o'ldirish jinoyatini olsak, unga o'xshash 98, 99, 100 va 101-moddalar mavjud. Demak, muayyan bosqichda, masalan, "kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o'ldirish"ni alohida ajratish maqsadga muvofiq deb topilgan. Bu yerda ham umumiy va maxsus norma o'rtasidagi raqobating yorqin misolini ko'rishimiz mumkin. Bunda 97-modda umumiy, 98-modda esa maxsus norma hisoblanadi va ustuvorlik unga beriladi.

Yuqoridagi misolda ko'rinib turibdiki, sanksiyalar turlicha. Bu har bir alohida qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasini kamaytirish yoki oshirish imkonini beradi.

Jinoyat huquqida normalar raqobati paydo bo'lishining yana bir sababi bir nechta normalarni qamrab olinishi hisoblanadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksi 220-moddasi "Ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish muassasalarining ishini izdan chiqaruvchi harakatlar" deb nomlanib, unda shaxsga va davlat boshqaruviga qarshi qaratilgan jinoyatlar belgilari mavjud.

Aniq aytganda, normalar raqobati o'z-o'zidan paydo bo'lmay, unga muayyan ehtiyoj va yaratish uchun belgilangan shartlar sabab bo'ladi. Normalarni ixtiyoriy ravishda yaratish mumkin emas. Ammo ba'zan normalar Umumiy va Maxsus qismni hisobga olmasdan qabul qilinadi. Bu esa huquqni qo'llovchilar uchun chalkashlik tug'dirib, jinoyat-huquqiy normalar raqobatining ochiq-oydin zarari sifatida baholanishi mumkin.

Shuningdek, normalar raqobati turlari ko'p ekanini ta'kidlash lozim. Olimlar turli tasniflarni taklif qiladilar. Ayrimlar asosiy turlar ko'p emas deb hisoblasa, boshqalar juda keng ro'yxatni keltiradi.

Umuman olganda, aksariyat hollarda jinoyat huquqida normalar raqobatining quyidagi: umumiy va maxsus norma raqobati; bir nechta maxsus normalar raqobati; modda va uning qismlari raqobati kabi turlar ajratiladi.

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olib, jinoiy-huquqiy normalar raqobatining umumiy va maxsus normalar raqobati va maxsus normalar raqobati turlariga ajratish maqsadga muvofiq.

Jinoyat huquqida normalar raqobatiga o'xshash yana bir hodisa kolliziya mavjud. Har iiki tushunchalarning o'xshashligi faqat normalar kesishishida namoyon bo'ladi. Agar normalar raqobati tanlov imkonini bersa, kolliziya bir moddaning ikkinchisiga zid kelishi demakdir. Normalar raqobati chuqur nazariy bilim va amaliy tajribani talab qilsa, kolliziya esa qonunchilikdagi xatolik hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, jinoyat-huquqiy normalar raqobati jazoning asosiy maqsadlarini amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Uni noto'g'ri hal qilish jinoyatchining yetarlicha jazo olmasligiga yoki aksincha, haddan tashqari ogir jazo tayinlanishiga olib kelishi mumkin.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. https://www.numbeo.com/crime/rankings_by_country.jsp?title=2025
2. https://de.wikipedia.org/wiki/Konkurrenz_%28Strafrecht_Deutschlands%29?utm